

OMMAVIY OFERTA

«Visa Direct bilan faollash» aksiyasida ishtirok etish uchun»

Mazkur ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda — «Oferta») “Kapitalbank” ATB tomonidan, keyingi o‘rinlarda «Tashkilotchi» deb ataluvchi, Bank Boshqaruvi Raisi Maevskiy K.L. nomidan, Ustav asosida ish yurituvchi, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti va norezidenti bo‘lgan, to‘liq muomalaga layoqatli jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda — «Ishtirokchi») «Visa Direct bilan faollash» aksiyasida (keyingi o‘rinlarda — «Aksiya») ishtirok etish to‘g‘risida shartnoma tuzish bo‘yicha rasmiy taklif hisoblanadi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish (akseptlash) deb Ishtirokchi tomonidan 3-bo‘limda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish uchun amalga oshirilgan harakatlar e’tirof etiladi. Ofertaning amaldagi tahriri Internet tarmog‘ida quyidagi manzilda joylashtirilgan va foydalanish uchun ochiq: www.kapitalbank.uz

1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

1.3. Aksiya lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun hech qanday to‘lov talab etilmaydi va u Kapitalbank.ONLINE masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali Visa Direct tizimi yordamida amalga oshiriladigan naqd pulsiz pul o‘tkazmalarini rag‘batlantirishga qaratilgan.

2. Aksiyani o‘tkazish muddati

2.1. Aksiya 2025-yil 1-noyabrdan 2026-yil 31-yanvargacha qadar o‘tkaziladi (shu jumladan).

2.2. Natijalar bosqichma-bosqich e‘lon qilinadi:

1-bosqich: 2025-yil 1-noyabrdan 2025-yil 30-noyabrgacha bo‘lgan ishtirok natijalari bo‘yicha, natijalar 2025-yil 10–15-dekabr oralig‘ida e‘lon qilinadi;

2-bosqich: 2025-yil 1-dekabrdan 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan ishtirok natijalari bo‘yicha, natijalar 2026-yil 10–15-yanvar oralig‘ida e‘lon qilinadi;

3-bosqich: 2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-yanvargacha bo‘lgan ishtirok natijalari bo‘yicha, natijalar 2026-yil 10–15-fevral oralig‘ida e‘lon qilinadi;

4-bosqich: 2026-yil 1-fevraldan 2026-yil 28-fevralgacha bo‘lgan ishtirok natijalariga ko‘ra yakuniy natijalar 2026-yil 10 -15 - mart kunlari oralig‘ida e‘lon qilinadi.

3. Ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti va norezidenti bo‘lgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Ishtirok etish uchun Ishtirokchi Aksiyaning o‘tkazish davrida «Kapitalbank.ONLINE» mobil ilovasi orqali 1 200 000 (bir million ikki yuz ming) so‘m yoki 100 (yuz) AQSh dollari miqdorida Visa Direct o‘tkazmasini amalga oshirishi kerak.

3.3. Ushbu Aksiyada Kapitalbankda ochilgan barcha USD valyutadagi Visa kartalari hamda Kapitalbank va boshqa banklarda ochilgan Humo/Uzcard kartalari ishtirok etadi.

3.4. Mazkur Ofertaning 3.2. bandida ko‘rsatilgan o‘tkazmani amalga oshirishi Ishtirokchiga mukofotni yutib olishga imkon beradi. Mukofotni yutish uchun taqdim etilgan imkoniyatlar soni o‘tkazmaning miqdoriga qarab mutanosib ravishda oshadi. Masalan, 2 400 000 (ikki million to‘rt yuz ming) so‘m miqdorida yoki 200 (ikki yuz) AQSh dollar miqdorida o‘tkazma Ishtirokchiga mukofotni yutish uchun 2 ta (ikkita) imkoniyatni taqdim etadi. O‘tkazmalar soni cheklanmagan.3.5. Aksiya «Kapitalbank» ATB xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ishtirok eta olmaydi.

3.6. Ofertani aksept qilish Ishtirokchining Aksiyaning o‘tkazish shartlari bilan to‘liq tanishganini va ularni shartlarsiz qabul qilganini anglatadi.

4. Sovrin fondi

4.1. Sovrin fondi Tashkilotchi mablag'lari hisobidan shakllantiriladi va quyidagi sovrinlarni o'z ichiga oladi:

- 37 dona «Alisa» aqlli kolonka.

4.2. Dastlabki uch bosqichda ishtirok shartlarini bajargan ishtirokchilar orasida har bir bosqichda 10 tadan kolonka o'ynaladi. 4-bosqichda esa ishtirok shartlarini bajargan ishtirokchilar orasida 7 ta kolonka o'ynaladi.

4.3. Sovrinlar naqd pulga almashtirilmaydi va qaytarilmaydi.

5. G'oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish tartibi

5.1. G'oliblar Aksiya o'tkazilayotgan har bir oy bo'yicha ishtirok natijalariga ko'ra tasodifiy tanlash usuli orqali tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda: dastlabki uch bosqich uchun 10 nafar g'olibdan va 4-bosqich uchun esa 7 nafar g'olibdan, shuningdek, 5 nafar zaxira ishtirokchisidan iborat tarzda aniqlanadi.

5.2. G'oliblar haqida ma'lumot «Kapitalbank» ATB rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

5.3. Tashkilotchi g'oliblar bilan sovrinlarni topshirish maqsadida natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida bog'lanadi. Sovrinlar Tashkilotchi ofislaridan birida topshiriladi.

5.4. Sovrin olish uchun g'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni Tashkilotchiga taqdim etishi va sovrin qabul qilinganidan so'ng qabul-qaytarish aktini imzolashi shart.

5.5. Agar g'olib har qanday sababga ko'ra sovrindan voz kechsa, sovrin ololmasa yoki Tashkilotchi xabarini olganidan keyin 5 ish kuni ichida bog'lanmasa, sovrin zaxira ishtirokchiga navbat tartibida topshiriladi.

5.6. G'olib sovrinni olish uchun natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 1 ta taqvim oyi muddatida murojaat qilishi mumkin.

6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Ishtirokchi majburiyatlari:

6.1.1. Oferta shartlariga rioya qilish;

6.1.2. O'ziga oid to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish.

6.2. Tashkilotchi majburiyatlari:

6.2.1. Aksiyani Oferta shartlariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;

6.2.2. O'yin natijalarining oshkoraligini va sovrinlarning o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash.

6.3. Tashkilotchi huquqlari:

6.3.1. Aksiya shartlarini o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish, bu haqda ishtirokchilarga rasmiy aloqa kanallari orqali xabar berish;

6.3.2. Aksiya shartlarini buzgan holat aniqlanganda, sovrin berishdan bosh tortish, bunday holatda hech qanday kompensatsiya taqdim etmaslik.

7. Aksiyaning to'xtatilishi yoki o'zgartirilishi

7.1. Tashkilotchi obyektiv sabablar mavjud bo'lganda (texnik nosozliklar, favqulodda holatlar va hokazo) Aksiyani muddatidan oldin to'xtatish yoki ushbu Oferta shartlariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo'lib, tegishli ma'lumotlarni Tashkilotchining rasmiy veb-saytida <https://www.kapitalbank.uz> joylashtiradi.

7.2. O'zgartirishlar e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa.

8. Tomonlarning mas'uliyati

8.1. Tashkilotchi uning nazoratidan tashqaridagi telekommunikatsiya tarmoqlari, o'tkazmalar tizimlari va texnik vositalardagi nosozliklar uchun javobgar emas.

8.2. Ishtirokchi taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga va Oferta shartlariga muvofiq ishtirok etishga javobgar.

9. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik

9.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni Aksiyada ishtirok etish, g'oliblarni aniqlash, mukofotlarni topshirish va natijalar haqida ma'lumot berish maqsadida qayta ishlashga rozilik bildiradi.

9.2. Ishtirokchi shuningdek, o'zining ismi va tasviri (fotosurati) aksiyaga oid materiallarda, jumladan internet tarmog'ida reklama maqsadlarida qo'shimcha rozilik olinmasdan foydalanishga rozilik beradi.

10. Boshqa shartlar

10.1. Ofertada tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

10.2. Oferta «Kapitalbank» ATB ning rasmiy resurslarida e'lon qilingan kundan kuchga kiradi va Aksiya o'tkazilish muddati tugaguniga qadar amal qiladi.